ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

YASHIL TURIZMNING XALQARO TURIZM BOZORIDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Xolmurodova Nargiza Baxrom qizi
Qarshi davlat universiteti
“Turizm va mehmondo‘stlik” yo‘nalishi magistri
Qosimov Jahongir Ruziboevich
Turizm va marketing kafedrasi, PhD
dotsenti.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi iqtisodiy samaradorligi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil turizmning barqaror iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasi, turizm daromadlari, bandlik darajasi va investitsiya jozibadorligiga ta’siri baholanadi. Shuningdek, ekologik yo‘naltirilgan turizm modellarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qo‘llaniladigan indikatorlar va baholash mexanizmlari tahlil etiladi. Xalqaro tajriba asosida yashil turizmning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari yoritilib, global turizm bozorida uning iqtisodiy ahamiyati asoslab beriladi.
Kalit so‘zlar: yashil turizm, xalqaro turizm bozori, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, ekoturizm, turizm daromadlari, investitsiyalar
Аннотация. В данной научной статье проводится комплексная оценка экономической эффективности зеленого туризма на международном туристском рынке. В исследовании анализируется вклад зеленого туризма в устойчивый экономический рост, формирование туристских доходов, занятость населения и инвестиционную привлекательность отрасли. Особое внимание уделяется показателям и методам оценки экономической эффективности экологически ориентированных туристских моделей. На основе международного опыта раскрываются возможности повышения конкурентоспособности зеленого туризма и обосновывается его экономическая значимость в условиях глобального туристского рынка.
Ключевые слова: зеленый туризм, международный туристский рынок, экономическая эффективность, устойчивое развитие, экотуризм, туристские доходы, инвестиции
Abstract. This scientific article provides a comprehensive assessment of the economic efficiency of green tourism in the international tourism market. The study examines the contribution of green tourism to sustainable economic growth, tourism revenues, employment generation, and investment attractiveness. Special attention is paid to the indicators and evaluation methods used to measure the economic performance of environmentally oriented tourism models. Based on international experience, the paper highlights the potential for enhancing the competitiveness of green tourism and substantiates its economic significance within the global tourism market.
Keywords: green tourism, international tourism market, economic efficiency, sustainable development, ecotourism, tourism revenues, investments

Kirish. Globallashuv sharoitida xalqaro turizm bozori jadal rivojlanib borar ekan, uning iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy turizm modellari qisqa muddatli iqtisodiy foyda keltirishi bilan birga, atrof-muhit degradatsiyasi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda mahalliy hududlarda ijtimoiy

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

nomutanosibliklarning kuchayishiga sabab bo‘layotgani ilmiy tadqiqotlarda qayd etilmoqda. Shu bois xalqaro turizm bozorida ekologik muvozanatni saqlashga yo‘naltirilgan yashil turizm konsepsiyasi muqobil va barqaror rivojlanish modeli sifatida shakllanmoqda. Yashil turizmning rivojlanishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalish turizm daromadlarining diversifikatsiyalanishi, bandlik darajasining oshishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ekologik jihatdan mas’uliyatli turizm modellarini joriy etgan mamlakatlar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish bilan birga, global turizm bozorida o‘z raqobatbardoshligini mustahkamlab bormoqda. Shu bilan birga, yashil turizmning iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada tizimli yondashuv asosida o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati ekologik yoki ijtimoiy jihatlarga alohida e’tibor qaratib, iqtisodiy natijalarni kompleks indikatorlar orqali baholash masalasini cheklangan darajada yoritadi. Bu holat yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi real iqtisodiy ahamiyatini aniqlashda metodologik bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi xalqaro turizm bozorida yashil turizmning iqtisodiy samaradorligini baholash, uning turizm daromadlari, bandlik va investitsiya jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish hamda barqaror turizm rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari yashil turizmni rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirishda hamda turizm sohasida iqtisodiy qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda yashil turizm konsepsiyasi barqaror rivojlanish paradigmasi doirasida xalqaro ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Tadqiqotchilar yashil turizmni ekologik xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligini ta’minlovchi muqobil turizm modeli sifatida talqin qilmoqdalar [1]. Ushbu yondashuvda turizm faoliyatining iqtisodiy natijalari atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirish sharti bilan baholanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil turizmning iqtisodiy samaradorligi uzoq muddatli barqaror daromadlar, bandlikni oshirish va hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish bilan izohlanadi [2]. Jumladan, BMT Jahon Turizm Tashkiloti hisobotlarida ekologik yo‘naltirilgan turizm modellarining global turizm bozorida raqobatbardoshligi ortib borayotgani qayd etilgan [3]. Bu holat yashil turizmni nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy jihatdan maqbul model sifatida qarash imkonini beradi. Bir qator olimlar yashil turizmning iqtisodiy samaradorligini baholashda turizm daromadlari, investitsiya oqimi va xizmatlar qo‘shimcha qiymatini asosiy indikatorlar sifatida ko‘rsatadi [4]. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda iqtisodiy samaradorlikni baholashda mahalliy aholi daromadlari va kichik biznes subyektlarining rivojlanish darajasi muhim omil sifatida e’tirof etilgan [5]. Bu yondashuv yashil turizmning hududiy iqtisodiyotga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. So‘nggi empirik tadqiqotlar yashil turizmga bo‘lgan talabning ortishi inson omili, xususan turistlarning ekologik ong darajasi va mas’uliyatli xulq-atvori bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda [6]. Ekologik jihatdan ongli turistlar yuqori narxga ega bo‘lgan, biroq sifatli va barqaror xizmatlarni tanlashga moyil bo‘lib, bu holat yashil turizm subyektlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi [7]. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda yashil turizmning iqtisodiy samaradorligini baholashda integrallashgan indekslar va ko‘p mezonli baholash modellaridan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi [8]. Bunday yondashuv turizm faoliyatining nafaqat moliyaviy, balki institutsional va ijtimoiy samaralarini ham qamrab oladi. Ayrim mualliflar raqamli texnologiyalar va “yashil innovatsiyalar”ning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roliga alohida e’tibor qaratgan [9]. Shu

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi iqtisodiy samaradorligini kompleks va tizimli baholash masalasi hanuzgacha yetarli darajada yoritilmagan. Aksariyat tadqiqotlar alohida indikatorlar yoki mintaqaviy misollar bilan cheklanib, global darajadagi taqqoslama tahlillarga kam e’tibor qaratadi [10]. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi iqtisodiy samaradorligini baholash uchun kompleks va tizimli yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan foydalanildi. Birinchi bosqichda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari asosida yashil turizmning iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil metodi orqali turli mamlakatlar va hududlarda yashil turizm rivojlanishining iqtisodiy ko‘rsatkichlari solishtirildi. Empirik tahlilda yashil turizmning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun turizm daromadlari, bandlik darajasi, investitsiya hajmi va xizmatlar qo‘shimcha qiymati kabi asosiy indikatorlardan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida ko‘p mezonli baholash va indekslash usuli qo‘llanilib, yashil turizmning iqtisodiy natijadorligi integral baho orqali aniqlashtirildi. Shuningdek, statistik ma’lumotlarni qayta ishlashda dinamik va strukturaviy tahlil metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar va nufuzli ilmiy manbalarning rasmiy ma’lumotlari asos qilib olindi. Mazkur metodologik yondashuv yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi iqtisodiy samaradorligini xolis va ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur tadqiqot doirasida yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi iqtisodiy samaradorligi turizm daromadlari, bandlik darajasi, investitsiya oqimlari va xizmatlar qo‘shimcha qiymati kabi asosiy iqtisodiy indikatorlar asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida so‘nggi yillarda e’lon qilingan xalqaro ilmiy tadqiqotlar va statistik hisobotlar ma’lumotlaridan foydalanildi. Xizmatlar sohasini ayniqsa, turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish viloyat iqtisodiyotining nafaqat makrodarajada, balki mega darajadagi raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Chunki xizmatlar iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni zamonaviy milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligining bosh omilidir. Turizm ham xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli bo‘lib, iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lganligi tufayli mamlakatimizda ham uning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi, katta hajmdagi valyuta tushumlarini ta’minlash orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir etib, turizm industriyasining rivojlanishiga imkon yaratmoqda. Turizm xizmatlari bozori va infratuzilmasini kengaytirish uslubini takomillashtirish uchun yaqin kelajakda turizm xizmatlar bozorining quyidagi rivojlanish strategiyasi kutilmoqda: - turistlar tashrif buyuradigan malakatlarning turistlik (tabiiy, madaniy va tarixiy) resurslari holatini hisobga oladigan mavjud bo‘lgan turistik xizmat va bozorlarini rivojlantirish hamda yangilarini yaratish; - turistik faoliyatning rejalashtirish va rivojlantirishga mahalliy jamoatchilik va mahalliy hokimiyatni jalb qilish hamda uning xavfsizligini ta’minlash; - har bir tomonning ehtiyojlari va ularni qondirishga erishish maqsadida sayohat tashkilotchilari bilan mahalliy tuzilmalar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish; - mahalliy aholi farovonligi oshishi, soliq, bojxona va boshqa turizm rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish, bunda asosiy diqqatni turizm sohasidagi xizmatlar narxini turistlar uchun ma’qul va turistik sanoat uchun foyda keltiradigan darajada saqlab qolishga qaratish; - mablag‘larni investitsiya qilishda atrof-muhit himoyasi masalalarini (qurilish, arxitektura, antropogen yuklamalar) hisobga olish; - aniq

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

marketingni amalga oshirish va xizmatlarni yurgizish uchun ko‘prok miqdorda resurslar ajratish, muayyan guruhlarga kiruvchi turistlarni izlash va ular uchun taklif kilinayotgan xizmatlarning manzili bo‘yicha ma’lumotlarni tashkil etish; - turizm sanoatida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy saviyasini o‘stirish; - guruh-guruh bo‘lib dam olish (taymsher) turini egallash tizimini rivojlantirish. Turizm sohasiga xizmat qiluvchi biznes subyektlari soni respublika bo‘yicha 2020-yildan boshlab keskin o‘zgarishni qayd etib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida turistik kompaniyalarning hududlar bo‘yicha salmog‘i[1] (2023 y.)

T/r	*Hududlar*	*Soni*	*Foiz*
1.	Toshkent shahri	634	66,2
2.	Toshkent viloyati	19	2,0
3.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	15	1,6
4.	Xorazm viloyati	29	3,0
5.	Surxandaryo viloyati	14	1,5
6.	Qashqadaryo viloyati	12	1,3
7.	Navoiy viloyati	4	0,4
8.	Buxoro viloyati	59	6,2
9.	Samarqand viloyati	119	12,4
10.	Sirdaryo viloyati	4	0,4
11.	Jizzax viloyati	5	0,5
12.	Andijon viloyati	19	2,0
13.	Farg‘ona viloyati	17	1,8
14.	Namangan viloyati	7	0,7
Jami		**957**	

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, turizmga xizmat qiluvchi biznes subyektlarining soni ortishi mamlakatimizda yangi turistik biznes subyektlarining shakllanishiga sharoit yaratilmoqda. Viloyatlar misolida ko‘rinib turibdiki, jami turistik kompaniyalarning asosiy qismi Toshkent shahriga (66,2 %) to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinlarda Samarqand viloyati (12,4 %), Buxoro viloyati (6,2 %) egallangan bo‘lsa Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari esa eng quyi o‘rinlarni egallaganligi mazkur hududlarda qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlarni belgilashni talab qiladi. Shuningdek, turizm xizmatlari bozori va infratuzilmasini kengaytirish sohasida ko‘plab metodik tavsiyalar mavjud bo‘lib, ulardan mamlakatimiz sharoitiga mos yo‘nalishlarda amaliyotda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda turio‘m xizmatlaridan faqat daromad olishgina emas, turizmning asosiy maqsadi va natijasi bo‘lmasligi, ayni bir paytda tegishli daromad olish, ham turizm faoliyati, ham mahalliy aholi uchun muhim o‘rinni egallashi lozim. Xalqaro turizmni shuningdek, milliy turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri esa turistik marshrutlarni ishlab chiqish va bu marshrutlarga turistlarni jalb qilish hisoblanadi. Har tomonlama qiziqarli ishlangan turistik marshrutlar odatda har qanday turistlarni o‘ziga jalb qila oladi. Odatda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga juda ko‘p tashqi va ichki omillar ta’sir qiladi. Turizm manzillariga yangi tur marshrutlarning ishlab chiqilishi bevosita turizmni rivojlantirish omillarining harakati bilan bog‘liqdir.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

2-jadval

Yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish tamoyillarining turlari[2]

Ko'rsatkichlar	*Turistik marshrutlarni ishlab chiqish tamoyillari*
Turizm marshruti	Yangi marshrutning jozibadorlik, betakrorlik tamoyili
	Yetarli imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili
	Faoliyatlilik va zamonaviylik tamoyili
	Qiziqarli va mazmundorlik tamoyili
	Ko'p jihatlilik tamoyili
	Har tomonlama qulaylik tamoyili

Turizm xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish turizm brendini yaratishga salmoqli ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz: - turistlarga xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlarga ega zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlarini yaratish, turistik zona hududida zamonaviy mehmonxonalar, jumladan apart-mehmonxonalar, apart-uylar, butik-mehmonxonalar, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi personal uchun mo'ljallangan xizmat uylari va boshqalarni o'z ichiga olgan joylashtirish vositalari majmuasini yaratish;

- tog' va sport turizmini rivojlantirish, tibbiy, shuningdek, ekstremal (paraplanlar va deltaplanlar) turizm bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli turizm infratuzilma obyektlarini yaratish, zamonaviy dor yo'llarini qurish;

- tog'-chang'i kurort markazi, tog'-chang'i trassalari va ko'targichlari, snoubord treklari, tog'-chang'i dam olish va madaniy-ko'ngilochar markazlar (kinoteatrlar, karaokebarlar, bouling, ko'ngilochar markazlar va boshqalar) faoliyatini tashkil etish;

- turistik zona hududida zamonaviy savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkil qilish; - sayyohlar ko'p bo'ladigan joylarda Wi-Fi zonalarini kengaytirish va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi statsionar va uyali aloqa faoliyatini ta'minlash, turistik infratuzilma obyektlarida, shu jumladan, temir yo'l stansiyalari, mehmonxonalar, kempinglar va dam olish, shuningdek, umumiy ovqatlanish va boshqa joylarda plastik kartalaridan foydalanish orqali to'lovlarni qabul qiluvchi bankomatlar, infokiosklar va to'lov terminallar sonini oshirish;

- turistik zona hududida tadbirkorlik va ishbilarmonlik tadbirlarini (MICE turizm) o'tkazishga mo'ljallangan kongress–xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb qilishga qaratilgan «Investor show room», shuningdek turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan «Visitor center»ni tashkil qilish;

- sport-sog'lomlashtirish hamda boshqa turizm marshrutlari, zamonaviy muhandislik infratuzilmalari, shuningdek ijtimoiy soha obyektlarini qurish.

Xalqaro turizm bozorida yashil turizmning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari turizm daromadlarining barqaror o'sishi, ekologik yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi, turizmda bandlik darajasining kengayishi, xizmatlar qo'shimcha qiymatining oshishi hamda turistik oqimlarning mavsumiy tebranishlarga kamroq bog'liqligi bilan tavsiflanadi.

№	Indikatorlar	Tavsifi	Iqtisodiy ahamiyati
1	Turizm daromadlari	Yashil turizm obyektlaridan	Barqaror va yuqori qo'shimcha qiymat

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

		olinadigan umumiy daromad	
2	Bandlik darajasi	Yashil turizmda yaratilgan ish o‘rinlari soni	Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik
3	Investitsiya hajmi	Ekologik turizm loyihalariga jalb qilingan investitsiyalar	Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish
4	Mahalliy aholi daromadi	Hudud aholisining turizm orqali olgan daromadi	Hududiy rivojlanish
5	Xizmatlar qo‘shimcha qiymati	Ekologik xizmatlar orqali yaratilgan qiymat	Raqobatbardoshlikni oshirish

3-jadval. Xalqaro turizm bozorida yashil turizmning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yashil turizmning xalqaro turizm bozorida iqtisodiy jihatdan samarali va barqaror rivojlanish modeli ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik yo‘naltirilgan turizm faoliyati turizm daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlash, bandlik darajasini oshirish hamda investitsiya jozibadorligini kuchaytirish orqali milliy va hududiy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yashil turizm xizmatlarining yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lishi xalqaro turizm bozorida ushbu yo‘nalishning raqobatbardoshligini oshirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yashil turizmning iqtisodiy samaradorligi faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmay, balki turistik oqimlarning barqarorligi, infratuzilmaning modernizatsiyasi hamda mahalliy aholi daromadlarining ko‘payishi orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, hududiy turizmni rivojlantirish, sanatoriy-kurort va ekologik dam olish maskanlarini takomillashtirish yashil turizmning iqtisodiy natijadorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida e’tirof etildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va “smart-turizm” xizmatlarini joriy etish iste’molchilarning talablariga moslashuvchanlikni ta’minlab, yashil turizmning xalqaro bozorlarida samarali targ‘ib qilinishiga xizmat qilmoqda. Bu holat mamlakatlarning ijobiy turistik qiyofasini shakllantirish bilan birga, xalqaro turizm oqimlarining kengayishiga zamin yaratadi. Umuman olganda, yashil turizmning xalqaro turizm bozoridagi iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun hududiy turistik salohiyatdan oqilona foydalanish, raqobatbardosh va ekologik jihatdan barqaror turizm mahsulotlarini ishlab chiqish hamda ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur. Tadqiqot natijalari yashil turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni takomillashtirishda va turizm sohasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Hall, C.M., Gössling, S., Scott, D. Tourism and Sustainability: Development, Globalisation and New Tourism in a Changing World. Routledge, 2021.

2. OECD. Rebuilding Tourism for the Future: COVID-19 Policy Responses and Recovery. Paris, 2022.

3. UNWTO. Tourism and Sustainable Development Goals – Progress Report 2023. Madrid, 2023.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

4. Pulido-Fernández, J.I., López-Sánchez, Y. Economic efficiency of sustainable tourism destinations. Journal of Sustainable Tourism, 2022, Vol. 30(4), pp. 789–808.
5. Torres-Delgado, A., Saarinen, J. Tourism and sustainable regional development. Sustainability, 2021, Vol. 13(4), 1–15.
6. Dolnicar, S. Green Tourists: Psychology, Behaviour and Demand. Elsevier, 2021.
7. Han, H., Lee, S., Kim, J. Green behavior and willingness to pay in tourism. International Journal of Hospitality Management, 2022, Vol. 98.
8. Blancas, F.J., González, M., Lozano-Oyola, M. Sustainable tourism indicators and economic performance. Ecological Economics, 2021, Vol. 181.
9. Buhalis, D., Amaranggana, A. Smart and green tourism destinations. Tourism Management, 2023, Vol. 92.
10. Sharpley, R. Tourism, sustainable development and the theoretical divide. Journal of Sustainable Tourism, 2020, Vol. 28(11), pp. 1933–1952.